# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
*(2021- yil yanvar-noyabr oylari uchun dastlabki ma’lumot)*

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo‘naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o‘z ta‘sirini o‘tkazadi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 589,3 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 115,4 mln. AQSh dollariga yoki 24,4 % ga ko‘paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
*(yanvar-noyabr, ming AQSh dollari)*



| | 2020- yil | 2021- yil | O‘sish sur’ati, % da | Jamiga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|---|
| **Tashqi savdo aylanmasi** | **427 969,0** | **589 344,5** | **124,4 %** | x |
| **Eksport** | **317 660,3** | **370 847,4** | **116,7 %** | **100,0** |
| *tovarlar* | *314 706,9* | *368 482,3* | *117,1* | *99,4* |
| *xizmatlar* | *2 953,4* | *2 365,1* | *80,1* | *0,6* |
| *oltin* | - | - | - | - |
| **Import** | **156 255,2** | **218 497,1** | **139,8 %** | **100,0** |
| *tovarlar* | *149 315,8* | *207 477,0* | *139,0* | *95,0* |
| *xizmatlar* | *6 939,4* | *11 020,1* | *158,8* | *5,0* |
| **Saldo** | **161 405,1** | **152 350,3** | **x** | **x** |

*Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

TSA da eksport hajmi 370,8 mln. AQSh dollariga (16,7 % ga ko‘paydi) va import hajmi 218,5 mln. AQSh dollariga (39,8 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida 152,4 mln. AQSh dollari qiymatida ijobiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR**
***(2021- yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)***

**Xitoy Xalq Respublikasi**
TSA – 137,2
Eksport – 97,4
Import – 39,8

**Turkiya**
TSA – 96,7
Eksport – 83,2
Import – 13,5

**Rossiya Federatsiyasi**
TSA – 109,4
Eksport – 71,2
Import – 38,2

**Qozog‘iston**
TSA – 57,0
Eksport – 35,9
Import – 21,1

**Latviya**
TSA – 29,4
Eksport – 26,6
Import – 2,8

**Ukraina**
TSA – 14,6
Eksport – 13,7
Import – 0,9

**Koreya Respublikasi**
TSA – 27,0
Eksport – 4,7
Import – 22,3

**Qirg‘iz Respublikasi**
TSA – 8,1
Eksport – 4,1
Import – 4,0

**Afg‘oniston**
TSA – 4,0
Eksport – 4,0
Import – 0,0

**Tojikiston**
TSA – 2,5
Eksport – 2,5
Import – 0,0

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, jahonning 49 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (26,3 %), Turkiyada (22,4 %), Rossiya Federatsiyasida (19,2 %), Qozog‘istonda (9,7 %), Latviyada (7,2 %), Ukraina (3,7 %) va Koreya Respublikasi da (1,3 %) qayd etilgan.

uzluksiz ishlashini ta’minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishlarga import tovarlarning o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi

aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

TSA da so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so‘nggi uch yilda TSA da Qirg‘iziston, Afg‘oniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo‘shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, va Latviya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

**TO‘RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR**
***(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)***




Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan 12 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Xitoy Xalq Respublikasi (137,2 mln. AQSh dollari), Turkiya (96,7 mln. AQSh dollari), Rossiya (109,4 mln. AQSh dollari) va Qozog‘iston (57,0 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
***(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)***

| Davlat nomi | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **160,4** | **136,9** | **137,2** |

| Davlat nomi | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| Eksport | 97,7 | 104,2 | 97,4 |
| Import | 62,7 | 32,7 | 39,8 |
| Saldo | 35,0 | 71,5 | 57,6 |
| **Turkiya** | **76,3** | **59,6** | **96,7** |
| Eksport | 56,8 | 57,3 | 83,2 |
| Import | 19,5 | 2,3 | 13,5 |
| Saldo | 37,3 | 55 | 69,7 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **166,8** | **96,4** | **109,4** |
| Eksport | 133,3 | 59,6 | 71,2 |
| Import | 33,5 | 36,8 | 38,2 |
| Saldo | 99,8 | 22,8 | 33,0 |
| **Qozog‘iston** | **69,5** | **49,40** | **57,0** |
| Eksport | 56,1 | 32,9 | 35,9 |
| Import | 13,4 | 16,5 | 21,1 |
| Saldo | 42,7 | 16,4 | 14,8 |
| **Latviya** | **22,8** | **23,7** | **29,4** |
| Eksport | 16,7 | 19,3 | 26,6 |
| Import | 6,1 | 4,4 | 2,8 |
| Saldo | 10,6 | 14,9 | 23,8 |
| **Ukraina** | **5,3** | **9,7** | **14,6** |
| Eksport | 2,1 | 8,6 | 13,7 |
| Import | 3,2 | 1,1 | 0,9 |
| Saldo | -1,1 | 7,5 | 12,8 |
| **Koreya Respublikasi** | **59,0** | **29,9** | **27,0** |
| Eksport | 18,0 | 6,2 | 4,7 |
| Import | 41,0 | 23,7 | 22,3 |
| Saldo | -23,0 | -17,5 | -17,6 |

| Davlat nomi | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| **Qirg'iz Respublikasi** | **4,6** | **4,3** | **8,1** |
| Eksport | 3,0 | 2,3 | 4,1 |
| Import | 1,6 | 2,0 | 4,0 |
| Saldo | 1,4 | 0,3 | 0,1 |
| **Afg'oniston** | **0,6** | **3,4** | **4,0** |
| Eksport | 0,6 | 3,4 | 4,0 |
| Import | - | - | - |
| Saldo | 0,6 | 3,4 | 4,0 |
| **Iroq** | **2,8** | **3,4** | **3,6** |
| Eksport | 2,8 | 3,4 | 3,6 |
| Import | - | - | - |
| Saldo | 2,8 | 3,4 | 3,6 |
| **Tojikiston** | **2,7** | **5,7** | **2,5** |
| Eksport | 2,7 | 5,7 | 2,5 |
| Import | - | - | - |
| Saldo | 2,7 | 5,7 | 2,5 |
| **Iron** | **5,1** | **2,6** | **6,1** |
| Eksport | 0,2 | 0,0 | 2,4 |
| Import | 4,9 | 2,6 | 3,7 |
| Saldo | -4,7 | -2,6 | -1,3 |
| **Litva** | **3,3** | **0,7** | **14,2** |
| Eksport | 0,0 | 0,0 | 2,2 |
| Import | 3,3 | 0,7 | 12,0 |
| Saldo | -3,3 | -0,7 | -9,8 |
| **Fransiya** | **1,2** | **0,9** | **2,9** |
| Eksport | 0,1 | 0,6 | 1,7 |
| Import | 1,1 | 0,3 | 1,2 |
| Saldo | -1 | 0,3 | 0,5 |

| Davlat nomi | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| **Pokiston** | **0** | **2,8** | **1,6** |
| Eksport | 0,0 | 2,8 | 1,4 |
| Import | 0,0 | 0,0 | 0,2 |
| Saldo | 0 | 2,8 | 1,2 |
| **Gruziya** | **0,4** | **1,3** | **1,2** |
| Eksport | 0,4 | 1,3 | 1,2 |
| Import | - | - | - |
| Saldo | 0,4 | 1,3 | 1,2 |
| **Turkmaniston** | **4,0** | **3,2** | **4,1** |
| Eksport | 0,5 | 0,6 | 0,8 |
| Import | 3,5 | 2,6 | 3,3 |
| Saldo | -3 | -2 | -2,5 |
| **Germaniya** | **4,3** | **2,0** | **9,2** |
| Eksport | 0,7 | 0,4 | 0,8 |
| Import | 3,6 | 1,6 | 8,4 |
| Saldo | -2,9 | -1,2 | -7,6 |
| **Ozarbayjon** | **0,6** | **0,3** | **0,8** |
| Eksport | 0,6 | 0,2 | 0,6 |
| Import | 0,0 | 0,1 | 0,2 |
| Saldo | 0,6 | 0,1 | 0,4 |
| **ASQH** | **1,1** | **1,4** | **1,2** |
| Eksport | 0,0 | 0,6 | 0,6 |
| Import | 1,1 | 0,8 | 0,6 |
| Saldo | -1,1 | -0,2 | 0 |

Qoraqalpog‘iston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to‘g‘ri keladi va bu ko‘rsatkich so‘ngi yillarda biroz o‘zgardi.

Respublikamizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib

borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2021 - yilning yanvar-noyabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 33,5 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi 2,4 % ga kamaygan.

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**
***(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)***




Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida 2020- yilning shu davriga nisbatan 33,5 % ga ko‘paydi va jami TSAdagi ulushi 66,5 % ni tashkil etdi.

# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI
*(2021- yil yanvar-noyabr)*

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida mamlakatning eksportyorlari soni 215 tani tashkil etib, ular tomonidan 370,8 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 16,7 % ga ko‘paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,7 % ni tashkil etib, ular asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (66,7 %), sanoat tovarlari (12,4 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari (13,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (5,2 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.




## XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI
*(2021- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)*



# MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
*(2021- yil yanvar-noyabr)*

| XSST tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | ming AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | ming AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | ming AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da |
| **Jami eksport** | **370 847,4** | **116,7** | **100,0** | **129 158,7** | **117,2** | **100,0** | **241 688,7** | **116,5** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 19 400,6 | 100,7 | 5,2 | 7 516,9 | 79,2 | 5,8 | 11 883,7 | 121,4 | 4,9 |
| Ichimliklar va tamaki | 24,7 | 69,4 | 0,0 | 24,7 | 69,4 | 0,0 | | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 49 616,6 | 121,9 | 13,4 | 4 378,2 | 190,8 | 3,4 | 45 238,4 | 117,8 | 18,7 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 1 201,1 | 88,1 | 0,3 | 738,1 | 295,5 | 0,6 | 463,0 | 41,6 | 0,2 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | - | - | - | | - | - | | - | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 247 463,3 | 114,9 | 66,7 | 106 855,6 | 120,2 | 82,7 | 140 607,7 | 111,1 | 58,2 |
| Sanoat tovarlari | 45 928,7 | 132,2 | 12,4 | 7 156,3 | 96,9 | 5,5 | 38 772,4 | 141,8 | 16,0 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 4 194,2 | 75 844,4 | 1,1 | 15,4 | - | - | 4 178,8 | - | - |
| Turli xil tayyor buyumlar | 653,1 | 36,3 | 0,2 | 499,6 | 290,6 | 0,4 | 153,5 | 9,4 | 0,1 |
| Xizmatlar | 2 365,1 | 80,1 | 0,6 | 1 973,9 | 163,6 | 1,5 | 391,2 | 22,4 | 0,2 |

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo‘nalishi bo‘yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda, eksport hajmi bo‘yicha keyingi o‘rinlar sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda nooziq-ovqat xomashyoga (yoqilg‘idan tashqari) to‘g‘ri kelmoqda.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta‘kidlash joizki, 2020- yilning yanvar-noyabriga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari), sanoat tovarlari hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlarida o‘sish kuzatildi.




**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI**
***(yanvar-noyabr, % da)***

| XSST tarkibi | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 4,1 | 6,1 | 5,2 |
| Ichimliklar va tamaki | - | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 8,7 | 12,8 | 13,4 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 0,7 | 0,4 | 0,3 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 0,1 | 0,4 | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 76,6 | 67,8 | 66,7 |
| Sanoat tovarlari | 8,2 | 10,9 | 12,4 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 1,1 | 0,0 | 1,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 0,0 | 0,6 | 0,2 |
| Xizmatlar | 0,5 | 0,9 | 0,6 |



## XSST BO‘LIMI BO‘YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI
*(2021- yil yanvar-noyabr)*

| XSST bo‘limi nomi | Ming AQSh dollari | 2020- yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Sabzavotlar va mevalar | 15 480,6 | 91,5 |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 3 698,6 | 160,7 |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 161,9 | 821,8 |
| Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal | 55,3 | 212,7 |
| Har hil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar | 1,2 | 50,0 |
| Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari | 3,0 | - |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Ichimliklar | 24,7 | 69,4 |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari** | | |
| Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 34 811,1 | 114,5 |
| To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 14 058,2 | 198,6 |
| Moy olinadigan urug‘lar va mevalar | 173,0 | 118,7 |
| O‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko‘mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari) | 574,3 | 18,7 |
| **Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar** | | |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar | 1 201,0 | 88,2 |
| **Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar** | | |
| O‘simlik moylari va yog‘lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan) | - | - |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar** | | |
| Noorganik kimyo moddalari | 119,6 | 927,1 |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 247 129,9 | 114,7 |
| Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari | 199,6 | 203,9 |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 0,4 | - |
| Bo‘yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo‘yoqlar | 6,1 | - |
| Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar | 7,9 | - |

| | | |
|---|---|---|
| **Sanoat tovarlari** | | |
| To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 41 277,8 | 134,8 |
| Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) | 25,6 | 11,6 |
| Cho‘yan va po‘lat | - | - |
| Ruda bo‘lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar | 4 590,8 | 118,2 |
| Teri, boshqa boshqa bo'lmagan tayyor charm mahsulotlari, mo'ynalar | 34,5 | 9,1 b. |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Avtomobillar | - | - |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari | 0,4 | - |
| Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va ularning detallari | - | - |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari | - | - |
| Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar | 4 181,3 | - |
| Maxsus bo'limlar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar | 12,1 | 302,5 |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Har xil tayyor buyumlar | 87,7 | 192,7 |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | 534,8 | 32,0 |
| Кiyim-кechaklar va кiyim-кechaк anjomlari | 29,1 | 37,1 |
| Santexnika, isitish va yoritish uskunalari uchun binolar, armatura va armatura bloklari, boshqa toifalarga kiritilmagan | 1,5 | - |
| **Xizmatlar** | | |
| Moliyaviy xizmatlar | 630,5 | 101,5 |
| Transport xizmatlari | 1 370,3 | 141,1 |
| Safarlar (turizm) | 364,3 | 137,6 |
| Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar | - | - |
| Qurilish xizmatlari | - | - |

So‘nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019- yilning yanvar-noyabridagi 49,8 % dan

2021- yilning yanvar-noyabrida 34,7 % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 65,3 % ni tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**
***(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)***




2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 26,3 % i), Turkiya (22,4 %), Rossiya Federatsiyasi (19,2 %), Qozog‘iston (9,7 %), Latviya (7,2 %), Ukraina (3,7 %) va Qirg‘iz Respublikasi (1,1 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 89,6 foizni tashkil etmoqda.

**RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI**
***(2021- yil yanvar-noyabr, % da)***




2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, o‘tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo‘lgan Turkiyaning ikki pog‘onaga tushishi hisobiga, Xitoy Xalq Respublikasi eksportdagi ulushi bo‘yicha peshqadamlikni oldi.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha geografiyasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 34 davlatdan 36 davlatga ko‘paydi.

## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI

***(2021- yil yanvar-noyabr, ming AQSh dollari)***

| Davlatlar | Ming AQSh dollari | | O‘sish sur‘ati, % da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 104159,4 | 97399,9 | 106,6 | 93,5 | 1 | 1 |
| Turkiya | 57277,6 | 83197,6 | 100,8 | 145,3 | 2 | 2 |
| Rossiya | 59571,8 | 71248,6 | 44,7 | 119,6 | 3 | 3 |
| Qozog‘iston | 32906,7 | 35919,4 | 58,6 | 109,2 | 4 | 4 |
| Latviya | 19299,4 | 26631,0 | 115,2 | 138,0 | 5 | 5 |
| Ukraina | 8587,8 | 13743,0 | 406,2 | 160,0 | 6 | 6 |
| Koreya Respublikasi | 6230,5 | 4680,1 | 34,7 | 75,1 | 7 | 7 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 2291,2 | 4111,4 | 76,4 | 179,4 | 13 | 8 |
| Afg‘oniston | 3389,7 | 3976,3 | 547,8 | 117,3 | 10 | 9 |
| Iroq | 3400,3 | 3630,3 | 121,2 | 106,8 | 9 | 10 |
| Tojikiston | 5667,2 | 2485,4 | 213,3 | 43,9 | 8 | 11 |
| Iron | 40,3 | 2414,6 | 21,2 | 5993,1 | 9 | 12 |
| Litva | 0,1 | 2163,7 | 8,8 | 2226953,5 | 41 | 13 |
| Franciya | 550,9 | 1658,6 | 780,0 | 301,1 | 20 | 14 |
| Pokiston | 2818,2 | 1404,6 | 33598,5 | 49,8 | 12 | 15 |
| Gruziya | 1349,4 | 1233,3 | 300,7 | 91,4 | 15 | 16 |
| Turkmaniston | 582,8 | 800,2 | 129,1 | 137,3 | 19 | 18 |
| Germaniya | 427,5 | 785,0 | 58,5 | 183,6 | 21 | 19 |
| Ozarbayjon | 205,5 | 622,7 | 34,3 | 303,0 | 24 | 20 |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari) kiradi.



## RESPUBLIKANING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
*(2021- yil yanvar-noyabr, ming AQSh dollari)*

| XSST tarkibi | Xitoy | | Turkiya | | Rossiya | | Qozog‘iston | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. |
| **Jami eksport** | **104159,4** | **97399,9** | **57278,7** | **83197,7** | **59571,8** | **71248,6** | **32906,7** | **35919,4** |
| shu jumladan: | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 1660,2 | 1342,1 | 552,4 | 1085,4 | 777,8 | 732,2 | 8 504,3 | 6 440,2 |
| Ichimliklar va tamaki | | - | - | | | | 35,6 | 24,7 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 28033,8 | 31113,2 | 1152,4 | 8309,5 | 2 121,0 | 2 574,5 | 35,5 | 1 783,4 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | - | - | - | - | - | - | - | - |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | - | - | - | - | - | - | - | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 58885,6 | 41692,1 | 48848,5 | 63451,3 | 49037,9 | 61389,9 | 23995,9 | 27 007,0 |
| Sanoat tovarlari | 13983,9 | 23096,7 | 6723,4 | 10350,1 | 6 925,0 | 5 408,1 | 5,4 | 19,4 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | - | - | - | - | - | 3,3 | 3,0 | 12,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 1593,4 | 153,5 | | | - | 5,0 | 45,5 | 84,4 |
| Xizmatlar | 2,4 | 2,3 | 2,0 | 1,4 | 710,1 | 1 135,4 | 281,5 | 548,2 |

Xizmatlar eksporti hajmi 2 365,1 ming AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,6 % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 19,9 % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (15,4 %), transport (57,9 %) hamda moliyaviy xizmatlar (26,7 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.



**XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI**
***(2021- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)***






## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan 6 908,1 ming AQSh dollari qiymatli 32 473,0 tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan 2 869,6 ming AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, 70,7 % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 3 555,3 ming AQSh dollariga teng 21 029,2 tonna sabzavot, shuningdek, 780,7 ming AQSh dollari qiymatidagi 1 022,3 tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 51,5 % ni tashkil etdi.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI**
***(2021- yil yanvar-noyabr, ming AQSh dollari)***




Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog‘iston (86,3 %), Rossiya Federatsiyasi (10,2 %) va Italiya (2,6 %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Bugungi kunda Qoraqalpog‘istonda meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to‘plangan tajriba bilan ham bog‘liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo‘jaligi xomashyosini sanoat asosida qayta ishlashga va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratmoqda.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI**
***(yanvar-noyabr)***

| Davlat nomi | 2020- yil | | | 2021- yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | tonna | ming AQSh dollari | ulushi*, % da | tonna | ming AQSh dollari | ulushi*, % da |
| Qozog‘iston | 34 792,3 | 8 266,9 | 84,2 | 31 680,6 | 6 167,1 | 86,3 |

| Davlat nomi | 2020- yil | | | 2021- yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | tonna | ming AQSh dollari | ulushi*, % da | tonna | ming AQSh dollari | ulushi*, % da |
| Rossiya Federatsiyasi | 1 847,6 | 777,8 | 7,9 | 978,7 | 732,2 | 10,2 |
| Italiya | - | - | - | 52,6 | 188,8 | 2,6 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 425,2 | 418,9 | 4,3 | - | - | - |

***-** *qiymat ifodasida*



## TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To‘qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko‘rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 41 277,8 ming AQSh dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 11,1 % ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 34,8 % ga o‘sdi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (94,7 %) hamda ipak va ipak mahsulotlari (2,6 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 12 turdagi to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 8 ta davlatiga eksport qilindi.

Respublikaning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.



## TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI
*(yanvar-noytabr, ming AQSh dollari)*

| Tovar nomi | 2019- y. | 2020- y. | 2021- y. |
|---|---|---|---|
| Paxtadan yigirilgan ip | 23 362,8 | 30 516,6 | 40 163,6 |
| Ipak va ipak mahsulotlari | 1 460,1 | 600,9 | 1 104,5 |
| Naqshli mato | - | - | - |
| Gilamlar va boshqa to'qimachilik pol qoplamalari | - | - | 280,5 |
| Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari | - | - | 182,1 |
| Paxta mahsulotlari | 9,0 | 81,4 | 168,6 |
| Boshqa tayyorlangan to'qimachilik, lattalar | | | 508,4 |

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (23 673,7 ming AQSh dollari – 55,8 %), Rossiya Federatsiyasi (5 361,7 ming AQSh dollari – 12,6 %) va Turkiya (10 350,1 ming AQSh dollari – 24,4 %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## ALOHIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI
*(yanvar-noyabr, ming AQSh dollari)*





**DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI**
***(yanvar-noyabr, ming AQSh dollari)***

| Davlatlar | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| Xitoy Xalq Respublikasi | 13991,3 | 14497,2 | 23673,7 |
| Rossiya Federatsiyasi | 6018,0 | 6904,9 | 5361,7 |
| Turkiya | 3030,0 | 6723,4 | 10350,1 |
| Pokiston | - | 2760,5 | 1393,3 |
| Qirg‘iz Respublikasi | - | 68,7 | 566,6 |
| BAA | 895,5 | | 90,3 |
| Iron | 190,4 | - | 470,3 |
| Hindiston | 389,0 | 87,6 | 57,1 |
| Polsha | 188,7 | 184,2 | - |

## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI
***(2021- yil yanvar-noyabr)***

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 218,5 mln. AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 139,8 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (43,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,0 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (12,5 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.




## XSST BO‘LIMI BO‘YICHA IMPORT TARKIBI
### *(2021- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)*




Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 62,2 mln. AQSh dollariga ko‘paydi va 139,8 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 11,0 mln. AQSh dollariga yetdi.



# MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
*(2021- yil yanvar-noyabr)*

| Tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | ming AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | ming AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | ming AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da |
| **Jami import** | **218 497,1** | **139,8** | **100,0** | **68 359,4** | **113,8** | **100,0** | **150 137,7** | **156,1** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 26 273,4 | 105,4 | 12,0 | 20 254,5 | 102,9 | 29,6 | 6 018,9 | 114,9 | 4,0 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - | | - | - | | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 15 432,9 | 108,4 | 7,1 | 15 377,0 | 110,2 | 22,5 | 55,9 | 19,5 | 0,0 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 16 095,5 | 180,1 | 7,4 | 8 768,7 | 209,2 | 12,8 | 7 326,8 | 154,4 | 4,9 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 6 154,0 | 153,7 | 2,8 | 6 154,0 | 153,7 | 9,0 | | - | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 27 366,4 | 112,3 | 12,5 | 3 071,2 | 95,8 | 4,5 | 24 295,2 | 114,8 | 16,2 |
| Sanoat tovarlari | 15 106,3 | 116,4 | 6,9 | 8 925,7 | 102,9 | 13,1 | 6 180,6 | 143,5 | 4,1 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 94 359,1 | 188,5 | 43,2 | 2 055,3 | 39,0 | 3,0 | 92 303,8 | 206,1 | 61,5 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 6 689,3 | 68,2 | 3,1 | 239,6 | 34,5 | 0,4 | 6 449,7 | 70,8 | 4,3 |
| Xizmatlar | 11 020,1 | 158,8 | 5,0 | 3 513,3 | 849,8 | 5,1 | 7 506,8 | 115,0 | 5,0 |

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2019- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik

hayvonlar importining ulushi 5,9 % dan 12,0 % gacha o‘sdi, mashinalar va transport asbob-uskunalari 50,3 % dan 43,2 % ga, turli xil tayyor buyumlar ulushi esa 11,3 % dan 3,1 % ga tashkil etdi.




**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI**
***(2021- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)***

| XSST tarkibi | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami import** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 5,9 | 16,0 | 12,0 |
| Ichimliklar va tamaki | | | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 7,3 | 9,1 | 7,1 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 3,8 | 5,7 | 7,4 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 1,2 | 2,6 | 2,8 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 11,0 | 15,6 | 12,5 |
| Sanoat tovarlari | 5,1 | 8,3 | 6,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 50,3 | 32,0 | 43,2 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 11,3 | 6,3 | 3,1 |
| Xizmatlar | 4,2 | 4,4 | 5,0 |

Xizmatlar importining tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan jami importdagi ulushi 4,4 % dan 5,0 % ga ko‘paydi.




## ALOHIDA IMPORT TOVARLAR
*(2021- yil yanvar-noyabr, ming AQSH. doll.)*







## XSTT BO‘YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI
*(2021- yil yanvar-noyabr)*

| Mahsulot nomi | Ming AQSh dollari | o‘zgarish sura‘tlari, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 15 270,9 | 102,8 |
| Tirik hayvonlar | 7 389,3 | 137,1 |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 109,4 | 81,0 |
| Sabzavotlar va mevalar | 86,0 | 71,9 |
| Go‘sht va go‘sht mahsulotlari | 493,6 | 250,4 |
| Shakar mahsulotlari va asal | 24,1 | 1,4 |
| Sut mahsulotlari va qush tuxumlari | 840,1 | 313,8 |
| Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo‘lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va ulardan tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar | 269,0 | 172,9 |
| Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar | 1 686,6 | 136,1 |
| Hayvonlar uchun ozuqa | 104,3 | 12,6 |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Ichimliklar | - | - |

| | | |
|---|---|---|
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari** | | |
| Probka va yog‘och-taxtalar | 13 280,5 | 95,5 |
| Tabiiy kauchuk (shu jumladan sintetik kauchuk va qayta ishlangan kauchuk) | 121,8 | |
| Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 2 017,2 | 9,4 b. |
| O‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo | 8,0 | 444,4 |
| To'qimachilik tolalari | 0,1 | 0,2 |
| **Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar** | | |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar | 12 723,5 | 171,7 |
| Ko‘mir, koks va briketlar | 3 358,2 | 243,1 |
| Tabiiy yoki sun’iy gaz | 13,7 | 9,4 |
| **Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar** | | |
| O‘simlik moylari va yog‘lari | 6 144,9 | 153,5 |
| Hayvon va o‘simlik moylari va yog‘lari | 9,1 | - |
| Hayvonlar moylari va yog‘lari | - | - |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar** | | |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 825,7 | 89,4 |
| Bo‘yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo‘yoqlar | 106,0 | 103,8 |
| Kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 18 294,4 | 116,9 |
| Organik kimyo moddalari | 5 701,7 | 105,2 |
| Birlamchi shaklda bo’lmagan plastmassalar | 1 428,4 | 136,7 |
| Noorganik kimyo moddalari | 697,0 | 106,7 |
| Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga tayyorgarlik, jilolash va yuvish vositalari | 40,2 | 33,6 |
| O'g'itlar | 273,2 | 71,1 |
| **Sanoat tovarlari** | | |
| Cho‘yan va po‘lat | 1 459,5 | 51,5 |
| Rezina buyumlari | 470,9 | 128,9 |
| Boshqa boshqa bo'lmagan metall buyumlar | 1 032,4 | 103,7 |
| To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 179,6 | 314,0 |
| Ruda metall bo'lmagan mineral mahsulotlar. | 1 486,7 | 86,3 |
| Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) | 10 434,7 | 150,5 |
| Qog‘oz, karton va qog‘oz massasi, qog‘oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar | 40,9 | 60,0 |
| Rangli metallar | 1,5 | 71,4 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |

| | | |
|---|---|---|
| Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar | 18 093,7 | 123,1 b. |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar | 38 719,8 | 201,7 |
| Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari | 17 201,9 | 141,0 |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning elektr qismlari | 2 741,5 | 74,2 |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari | 6 999,5 | 79,9 |
| Metallarni qayta ishlash mashinalari | 285,4 | 48,7 |
| Kantselyariya mashinalari va ma’lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar | 60,3 | 21,9 |
| Avtomobillar | 6 566,2 | 129,9 |
| Boshqa transport vositalari | 3 690,9 | 17,1 b |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Har xil tayyor buyumlar | 405,2 | 51,8 |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | 2 555,2 | 138,6 |
| Blokli binolar, suv o‘tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari | 3 636,5 | 51,2 |
| Poyabzal | 2,1 | - |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari | 34,2 | 9,0 b. |
| Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o‘xshash tikilgan mebellar | 48,6 | 130,6 |
| Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar | 7,6 | 21,7 |
| **Xizmatlar** | | |
| Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar | 6 501,4 | 120,5 |
| Transport xizmatlari | 141,2 | 135,5 |
| Texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash xizmatlari | 3 710,5 | 483,6 |
| Moliyaviy xizmatlar | 667,0 | 99,1 |

Turli xil tayyor buyumlar importi hajmlarining kamayishiga blokli binolar, suv o‘tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari (51,2 % ga pasaygan), har xil tayyor buyumlar (51,8 % ga pasaygan) importining kamayishi ta’sir qilgan.

Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari importi kamayishiga esa, probka va yog‘och-taxtalar (95,5 % ga pasaygan) importining kamayganligi bevosita ta’sir etgan.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
***(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)***




Hisobot davri yakunlariga ko‘ra, import bo‘yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 18,2 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (17,5 %) ortda qoldirgan holda birinchi o‘rinni egalladi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakuni bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi tomonidan 39 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

# TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
*(yanvar-noyabr)*

| Davlat nomi | ming AQSH dollari | | o‘sish sur’ati, % da | | o‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 32673,7 | 39762,9 | 52,1 | 121,7 | 2 | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 36795,9 | 38225,8 | 109,7 | 103,9 | 1 | 2 |
| Koreya Respublikasi | 23748,5 | 22317,7 | 57,9 | 94,0 | 3 | 3 |
| Qozog‘iston | 16480,2 | 21118,8 | 123,0 | 128,1 | 4 | 4 |
| Turkiya | 2336,5 | 13494,2 | 12,0 | 577,5 | 10 | 5 |
| Litva | 657,4 | 11994,1 | 20,2 | 1824,3 | 26 | 6 |
| Shvetsiya | 552,0 | 9212,5 | 207,7 | 1668,9 | 28 | 7 |
| Germaniya | 1572,0 | 8381,0 | 44,3 | 533,2 | 15 | 8 |
| Vyetnam | 8984,2 | 7088,6 | 61,2 | 78,9 | 5 | 9 |
| Chexiya Respublikasi | 2398,0 | 6784,8 | 230,7 | 282,9 | 9 | 10 |
| Niderlandiya | 700,0 | 5426,5 | 53,0 | 775,2 | 25 | 11 |
| BAA | 517,0 | 5285,9 | 22,1 | 1022,4 | 29 | 12 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 1972,4 | 3957,2 | 120,2 | 200,6 | 12 | 13 |
| Eron | 2580,1 | 3748,1 | 52,4 | 145,3 | 7 | 14 |
| Turkmaniston | 2569,0 | 3310,7 | 72,8 | 128,9 | 8 | 15 |
| Latviya | 4417,8 | 2769,7 | 72,3 | 62,7 | 6 | 16 |
| Gonkong | 590,8 | 1843,2 | 29,4 | 312,0 | 16 | 17 |
| Ruminiya | 2211,0 | 1353,3 | 102,6 | 61,2 | 11 | 18 |
| Fransiya | 311,7 | 1237,6 | 28,6 | 397,1 | 32 | 19 |
| Avstriya | 1920,7 | 1139,8 | 270,1 | 59,3 | 13 | 20 |

Shuni ta'kidlash kerakki, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Koreya Respublikasi, Vyetnam kabi mamlakatlar Qoraqalpog‘iston

Respublikasiga to var va xizmatlar importidagi yirik hamkor davlatlar birinchi yigirmataligiga kirdi.

Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Koreya Respublikasi, Turkiya , Litva va Shvetsiya Respublikasi) jami importning 71,4 % ulushini tashkil qildi, bu 156,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



**RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI**
***(2021- yil yanvar-noyabr, % da)***




Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning

qismlari importining o‘sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Koreya Respublikasi tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI**
***(2021- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)***




2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 11 020,1 ming AQSh dollarini yoki jami import hajmining 5,0 % ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 0,6 % ga ko‘paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (58,9 %), texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash xizmatlar va (33,7 %) dan iborat bo‘ldi. Shuningdek, moliyaviy xizmatlar (6,1 %) va transport xizmatlari (1,3 %) tashkil etdi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi**
**Tel: (61) 224-92-06**